

QISHLOQ XO‘JALIGI KOOPERATIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Turopov Shohrubbek Ulug‘bek o‘g‘li¹,
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich²**

¹Magistr talabasi, Toshkent Davlat Agrar Universiteti

turopovahohruh1212@icloud.com

²Iqtisod fanlari doktori, professor, Toshkent Davlat Agrar Universiteti

ANNOTATSIYA

Qishloq xo‘jaligi kooperativlarini rivojlantirish bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat qishloq hududlaridagi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, balki foydali ijtimoiy muhit yaratish, aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Kooperativlar kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarini birlashtirish orqali ularni yanada samarali faoliyat yuritishga undaydi, resurslarni oqilona taqsimlashga yordam beradi. Bu tizimdagi asosiy maqsad - qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yanada kuchaytirishdir.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, Boshqaruv, Raqobat, Eksport, Kooperativ faoliyat, Mutaxassislar, Imkoniyatlar, Grant, Subsidiyalar.

PRIORITY AREAS FOR THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL COOPERATIVES

ANNOTATION

The development of agricultural cooperatives is one of the priority areas of our country’s economy today. This process serves not only to ensure economic stability in rural areas, but also to create a beneficial social environment, and to increase the well-being of the population. Cooperatives, by uniting small and medium-sized farms, encourage them to operate more efficiently, and help to rationally allocate resources.

The main goal of this system is to increase the competitiveness of agriculture and further strengthen its export potential.

Key words: Agriculture, Management, Competition, Export, Cooperative activity, Specialists, Opportunities, Grants, Subsidies.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КООПЕРАТИВОВ

АННОТАЦИЯ

Развитие сельскохозяйственной кооперации является одним из приоритетных направлений развития экономики нашей страны. Этот процесс служит не только обеспечению экономической стабильности на селе, но и созданию благоприятной социальной среды, повышению благосостояния населения. Кооперативы, объединяя малые и средние фермерские хозяйства, стимулируют их к более эффективной работе и способствуют рациональному распределению ресурсов. Главная цель этой системы - повышение конкурентоспособности сельского хозяйства и дальнейшее укрепление его экспортного потенциала.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, Управление, Конкуренция, экспорт, Кооперативная деятельность, Специалисты, Возможности, Гранты, Субсидии.

KIRISH

Kooperativlarning rivojlanishida boshqaruv tizimini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Boshqaruvda samarali mexanizmlarni joriy etish, a'zolar ishtirokini kengaytirish, qarorlar qabul qilish jarayonini demokratlashtirish orqali kooperativ faoliyati yanada shaffof va adolatli bo'ladi. Har bir a'zo o'zining manfaatlarini to'liq ifoda eta olishi va o'z hissasini qo'shishi muhimdir. Shu bilan birga, boshqaruv kadrlarini malakasini oshirish va rahbarlik qiladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish kooperativlarni barqarorlashtiradi va ularni zamonaviy talablarga javob beradigan tashkilotlarga aylantiradi. Moliyaviy imkoniyatlarni kuchaytirish kooperativlarning faoliyatini davom ettirish va kengaytirish uchun zarur shartdir. Kooperativlarga mo'ljallangan kreditlar, subsidiyalar, grantlar va boshqa moliyaviy



instrumentlar a'zolarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy uskunalarni xarid qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan to'g'ri foydalanish, byudjetni rejalashtirish va sarflashni samarali boshqarish kooperativlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Moliyaviy nazorat yo'lga qo'yilgan holatda, a'zolarining ishonchi yanada oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnologik yutuqlardan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi kooperativlarini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Zamonaviy texnikalar, agrotexnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmi va sifati oshadi. Qishloq xo'jaligidagi texnik yangiliklarni joriy etish, ilg'or sug'orish texnologiyalarini qo'llash, ekinlarni samarali parvarishlash usullarini tatbiq etish kooperativlarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Bunday innovatsion yondashuvlar kooperativlarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotlarning eksport salohiyatini oshiradi. Bozorni o'rganish va unga moslashish kooperativ mahsulotlarining sotuvda muvaffaqiyat qozonishi uchun asosiy shartlardan biridir. Kooperativlar mahsulot sifatini yaxshilash, uni qayta ishlash va markalash jarayonlarini takomillashtirish orqali bozor talablariga mos mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Mahsulotlarni sertifikatlash, ekologik xavfsizlik va sifat standartlariga rioya qilish kooperativlar mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh qiladi. Raqamli marketing va savdo platformalaridan foydalanish esa mahsulotlarni tez va samarali sotish imkonini kengaytiradi [1].

Kooperativ a'zolarining malakasini oshirish doimiy jarayon bo'lib, bu yo'nalishda maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Qishloq xo'jaligi, moliya, boshqaruv sohalarida treninglar o'tkazish, seminarlar tashkil etish, yangi bilim va ko'nikmalarni joriy etish kooperativ faoliyatini yuqori darajaga ko'taradi. Yoshlarga va ayollarga e'tibor qaratish, ularni kooperativlarga keng jalb etish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, jamoatchilik fikrini inobatga olish va a'zolarining huquqlarini himoya qilish uchun ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish kooperativlar faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. A'zolar uchun sog'liqni saqlash, ta'til,



pensiya va boshqa ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish mehnat unumdorligini oshiradi va shaxsiy farovonlikni ta'minlaydi. Mehnat qonunchiligini qat'iy bajarish, adolatli ish haqi tizimini yaratish kooperativlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, kooperativlarning huquqiy himoyasini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish kerak [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish kooperativlarning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim omillardan biridir. Yaxshi yo'llar, saqlash omborlari, issiqxona va boshqa infratuzilma obyektlarini yaratish qishloq hosilini tez va sifatli bozorga yetkazishni ta'minlaydi. Zamonaviy logistika tizimlarini joriy etish mahsulotlarni tashish xarajatlarini kamaytirib, ularni saqlash muddati va sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, energetika, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarishni barqarorlashtirish mumkin. Davlat siyosatining kooperativlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi ularning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonun hujjatlarini takomillashtirish, imtiyozlar taqdim etish, moliyaviy yordamni yo'lga qo'yish hamda monitoring va baholash tizimini tashkil etish kooperativlarga mustahkam poydevor yaratadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali kooperativlar qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini olishadi [3].

Xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish qishloq xo'jaligi kooperativlarini tez rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa davlatlardagi muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish, ilg'or usullarni qo'llash kooperativlarning samaradorligini oshiradi. Global bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotining yanada diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Ekologik mezonlarni hisobga olish kooperativlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni tejash va asrash, faqat barqaror va ekologik toza ishlab chiqarish asosida faoliyat yuritishi kooperativlarning sohadagi ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Agroekologik usullarni joriy etish kooperativlarning barqarorligini yanada mustahkamlaydi. Kooperativlararo hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirish qishloq xo'jaligida yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday tizimda resurslar birlashtiriladi, ishlab



chiqarish jarayoni optimallashtiriladi va innovatsiyalar ko‘proq tarqatiladi. Birgalikdagi loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni faol rivojlantiradi va qishloq xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantiradi [4].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish kooperativlarning yuritish tizimini soddalashtiradi, tezkor axborot almashinuvini ta‘minlaydi. Elektron boshqaruv tizimlari, moliyaviy hisobotlar va a‘zolar bilan muloqot platformalari kooperativlarning samaradorligini oshiradi. Shu tariqa, kooperativlar zamonaviy raqamli infratuzilmaga ega bo‘lib, faoliyatini yuqori bosqichga ko‘taradi. Yoshlarni va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni kooperativga keng jalb qilish ijtimoiy sohada barqarorlikni mustahkamlaydi. Yoshlarning yangi g‘oyalari, innovatsion yondashuvlari hamda ayollarning mehnati kooperativlarning faoliyatini yanada samarali qiladi. Ularga ta‘lim, moliyaviy yordam va ijtimoiy kafolatlar berish tizimi kooperativlar taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Sifatni nazorat qilish va uning oshirilishiga qaratilgan chora-tadbirlar mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Kooperativ mahsulotlari xalqaro standartlarga mos kelishi uchun sifat nazorati tizimlarini joriy etish, sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish lozim. Bu esa ichki va tashqi bozorda ishonchni oshiradi hamda yangi iste‘molchilarni jalb qiladi. Yuqori darajada integratsiyalashgan kooperativlar yanada kengroq iqtisodiy tizimlarga olib kiradi. Ularning tarmoqlari va alyanslari ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini yaxshilaydi, yangi iqtisodiy modellarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Kooperativlarning o‘zaro bog‘liqligi yaratilgan sharoitda qishloq xo‘jaligining umumiy samaradorligi oshadi. Yuqoridagi barcha yo‘nalishlar birgalikda qishloq xo‘jaligi kooperativlarini bugungi talablar asosida zamonaviy, iqtisodiy jihatdan mustahkam va ijtimoiy barqaror tizimlarga aylantiradi. Ular nafaqat fermerlar va dehqonlarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki butun millatning oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy farovonligiga xizmat qiladi. Shu sababli, kooperativlar sohasidagi har bir qadam asosli va puxta o‘ylangan holda amalga oshirilishi lozim. Qishloq xo‘jaligi kooperativlarining rivojlanishi yuksak maqsadlar sari qadam tashlash bilan birga, zamonaviy jamiyat talablari va xalqaro standartlarga javob beruvchi tizimlarni yaratishdir. Bu esa mamlakatimizning oziq-ovqat sektorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga va dunyo miqyosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga



imkon yaratadi. Kooperativlarni targ'ib qilish, ularga kompleks ko'mak berish hamda rat-rasmiy nazoratni mustahkamlash natijasida bu yo'nalishda katta yutuqlarga erishish mumkin [5].

1-jadval

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar agrobiznesida kooperativlarning ulushi, %

№	Mamlakatlar	Faoliyat yo'nalishlari				
		Marketing, moddiy-texnika ta'minoti (o'rtacha)	Sotish			
			sut	go'sht	meva va sabzavot	don
1	AQSh	86	-	20	40	11-45
2	Kanada	59	20-54	7-25	54	15-40
3	Shvesiya	99	79-81	60	75	75
4	Gollandiya	82	35	70-96	-	40-50
5	Germaniya	55-60	30	60	-	50-60

AQShda 30 000 kooperativlar mavjud (2013) kooperativ tarmoqlari: qishloq xo'jaligi, kredit uyushmalar, qishloq xo'jaligi krediti, elektr tarmog'i, chakana savdo va uy kurilish yo'nalishida faoliyat qo'rsatmoqda. Kooperativlarni a'zolik bazasi 350 mln nafar, bandlar soni 1 mln, yillik oboroti 500 mlrd dollarni tashkil etadi.

AQSh qonunchiliga muvofiq kooperativlar tijorat va notijorat tashkilotlari bo'lishi mumkin. Notijorat kooperativlar AQSh hukumati tomonidan imtiyozli soliq va kredit siyosatini yuritish orqali rag'batlantiriladi.

Kooperativlarning tijorat yoki notijorat tuzilishini nazorat qilish solik va moliya inspeksiyalariga yuklatilgan. Ishchilarning maoshiga ketadigan sof foyda ulushining ko'payishi soliklarning ko'payishiga olib keladi.

Xususan, AQShdagi "Heartland" kooperativining tajribasi diqqatga sazovor. Mazkur kooperativ fermerlarni mineral o'g'it, zaharli kimyoviy vositalar, urug'lik bilan ta'minlaydi. Kooperativning zaharli kimyoviy vositalarni to'g'ridan-to'g'ri olish bo'yicha Yevropadagi kimyo zavodlar bilan shartnomasi mavjud. Shu bilan birgalikda



kooperativ fermerlar buyurtmasiga binoan ularning o‘simliklariga kimyoviy ishlov berish xizmatini ham ko‘rsatadi. Buning uchun barcha zarur texnika vositalari mavjud. Kooperativ fermerning buyurtmasiga binoan mineral o‘g‘itlarni sof yoki aralashtirilgan holda fermerning dalasiga yetkazib beradi.

Kanadada qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulot assotsiatsiyalari Kanadaning agrar siyosati muvaffaqiyatli qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy sharoitlarni ham, ishlab chiqaruvchilarga o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va butun faoliyatlari daromadlilikini oshirish uchun qayta ishlash sanoati va bozor imkoniyatlaridan foydalanishga imkon beruvchi tashkiliy asoslarni ham yaratishga qaratilgan. Bunday tashkiliy asoslar ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo‘jalik mahsulotini qayta ishlash va mahsulotlarni sotishga tayyorlash sohasidagi kooperatsiyasi, shuningdek kooperativ shakldagi ishlab chiqaruvchilarning ixtisoslashgan savdo assotsiatsiyalarini tashkil etish bo‘ladi.

Ulgurji, ba‘zan esa chakana savdo mahsulotini qayta ishlash sohasida ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi Kanadada o‘ttizinchi yillardayoq rivojlana boshladi. Hozirgi vaqtda bunday ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi qonunchilik asosga ega va ishlab chiqaruvchilar faoliyatining tan olingan me‘yoriga aylangan.

Germaniyada kooperativlar faoliyati ishlab chiqarish va matlubot kooperatsiyasi haqidagi qonunchilik bilan reglamentga solinadi. Barcha kooperativlarga, shu jumladan qishloq xo‘jaligi kooperativlariga ham, unifikatsiyalangan huquqiy maqom berilgan.

Federal hukumat kooperatsiyani rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, moddiy yordam ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish, qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish, fermer xo‘jaliklarining ta‘minoti va ishlab chiqarish xizmatlari ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan fermerlik kooperativlarida kooperativlarning a‘zolari bilan olib boradigan iqtisodiy operatsiyalari soliqqa tortiladigan summaga kirmaydi. Bevosita moddiy yordam bilan bir qatorda kooperatsiyani bilvosita rag‘batlantirish ham ahamiyatli ko‘mak hisoblanadi. So‘nggi yillarda yuqori davlat amaldorlarining kooperativ korxonalarining vakillari bilan aloqalari tobora kuchayib bormoqda, kooperativlardagi yetakchi mutaxassislarini mamlakatning davlat organlariga ishga taklif qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Germaniyada kooperativ qayta ishlash tarmog‘i samaradorligini doimiy ravishda oshirish muammosi Germaniya Rayffazen ittifoqiga 3086 ta kooperativlarni



birlashtirish bilan hal qilingan.

Finlyandiyada 1897 yilda birinchi kooperativ tashkil etilgan bo‘lib 84% aholi kooperativ a‘zosi hisoblanadi. O‘rtacha har bir kishi 2ta kooperativda a‘zo, 4 mingta kooperativga 4 mln. nafar kishi a‘zo hisoblanadi

XULOSA

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi kooperativlarini rivojlantirish – bu jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qishloq joylarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyotning mustahkam poydevorini barpo etish uchun ajralmas jarayondir. Kooperativ tizimlari orqali qishloq xo‘jaligida tashkilotchilik, mehnat unumdorligi va innovatsiyalarni birlashtirish mumkin. Ularning rivojlanishi esa butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishdagi har bir tashabbus, har bir qo‘yilgan maqsad uzoq muddatli natijalar keltiradi va mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasidagi salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan belgilangan strategik vazifalar asosida kooperativlarni rivojlantirish barqaror taraqqiyot yo‘lidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar doimiy e‘tibor va qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov. Qishloq xo‘jaligi kooperativlarini tashkil etish va ularni moliyalashtirish. Toshkent: Qishloq xo‘jaligi nashriyoti. B. (2019).
2. Islomov. Kooperativlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari. Iqtisodiyot va boshqaruv, 3(14), 45-53. M. (2021).
3. Karimov T., & Rasulova, N. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi kooperativlarining rivojlanish strategiyasi. Agrar fanlar jurnal, 12(2), 78-85. (2020).
4. Mamatqulova Z. Kooperatsiya jarayonida fermer xo‘jaliklari ishtirokining ahamiyati. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti, 7(1), 33-41. (2018).
5. Murodov S. Qishloq xo‘jaligidagi kooperativlarning ijtimoiy-iqtisodiy roli. Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 5(20), 60-67. (2017).
6. Saidova G. Kooperativlar va ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdagi o‘rni. Qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari, 1(3), 12-19. (2022).
7. Toshpo‘latov R. Kooperativlar faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish muammolari. Ilmiy izlanishlar jurnal, 4(7), 91-97. (2020).